

GLOBALLASHUV JARAYONIDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI

Mirzaliyev N.A.

Jamoat xavfsizligi universiteti, kafedra o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi globallashuv jarayonining ijobiy va salbiy jihatlari inobatga olgan holda jamiyat hayotida tinchlik madaniyatini qaror toptirishning o'ziga xos tomonlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, ma'naviy tahdidlar, tarbiya, dunyoviy bilim, oila, tinchlik madaniyati, millat, vatanparvarlik.

Аннотация: В статье рассматриваются конкретные аспекты формирования культуры мира в обществе с учетом позитивных и негативных сторон современного процесса глобализации.

Ключевые слова: глобализация, духовные угрозы, образование, светское знание, семья, культура мира, нация, патриотизм.

Annotation: This article highlights the specific aspects of establishing a culture of peace in society, taking into account the positive and negative aspects of today's globalization process.

Keywords: globalization, spiritual threats, education, secular knowledge, family, culture of peace, nation, patriotism.

Yangi O'zbekiston sharoitida globallashuv jaronlari juda tez rivojlanib bormoqda. Bu jarayonlarda tinchlik madaniyatini qaror toptirish amalga oshirilayotgan islohatlarning barqaror amalga oshirishini ta'minlaydi. Albatda globallashuv jaronida tinchlik madaniyatining ahamiyatini ochib berishda globallashuv tushunchasini mazmun-mohiyatini, uning ijobiy va salbiy jihatlari atroflicha tadqiq qilishni talab etdi.

Taniqli sotsiolog E.Giddens fikriga ko'ra, "globallashuv bir-biridan ko'p uzoqlarda ro'y beradigan mahalliy voqea-hodisalarning butunjahon sotsial munosabatlarga intensivlashuvidir.[1]

P.Ratlend globallashuv deganda kishilar va xalqlar, davlatlar o'rtasidagi aloqalarning umuminsoniy mohiyat kasb etishi deb tushunadi.[2]

Taniqli I.Prigojin jahonda yuz berayotgan globallashuvni avvalo axborot tizimi bilan bog'liq voqelik deb biladi. Uning fikriga ko'ra, globallashuvga bifurkatsiya (ajralish) va fluktuatsiya (tebranish) xosdir.[3]

Ulrix Bek globallashuvga hayotning ba'zan anglanmaydigan va nomuvofiq transmilliy shakllariga berilishlar o'rtasidagi masalalarni bartaraf etuvchi hodisadir"[4]

X.S.Jumaniyazov, M.A.Sobirova va U.B.Nig‘manovalar globallashuvga “turli mamlakatlarning, xalqlarning jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy sohalaridagi o‘zaro ta’siri va bog‘liqligining keskin kuchayishidir” deb, – ta’rif beradilar.

Globallashuvning tarqalishida kompyuter, internet, badiiy ijodiy hamkorlik, OAV, ta’lim, ilm-fan sohasidagi integratsiya muhim o‘rin tutadi.

Globallashuvning ijobiy va salbiy ta’sirini Mahatma Gandining quyidagicha ifodalagan: «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar-to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman». Bundan kelib chiqib tinchlik madaniyatini shakllantirish globallashuv jarayonida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan turli ijtimoiy bo‘xronlarning oldini oluvchi asosiy vositalardan biri deb aytishimiz mumkin.

Bugungi kunda globallashuv niqobi ostida turli mafkuraviy tahdidlarning ham kirib kelayotganiga e’tibor qaratish lozim. Diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg‘unchi g‘oyalar aynan shunday mafkuraviy tahdidlardir. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashashni o‘rganish, murakkab va tahlikali hayotning shafqatsiz o‘yinlari to‘g‘risida bir yoqlama va soxta tasavvurlar shakllanmasligiga alohida e’tibor berish lozim. Bu o‘rinda esa yana tinchlik madaniyati shakllanganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tinchlik madaniyati insonlarda bunyodkorlik, farovonlik, vatanparvarlik kabi ezgu g‘oyalarni qaror topdiradi.

Aytish joizki, globallashuvga nisbatan sog‘lom dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan alohida dastur ishlab chiqish bugungi kunda alohida ahamiyatga ega. chunki, qayerda beparvolik va loqaydlik bo‘lsa, ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi.

Globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli bo‘lgan turli xil tahdidlar vujudga kelishi mumkin. Bular insonlarning qadriyatlari va turmush tarzini izdan chiqarishga jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan ma’naviy tahdidlardir.

Texnologiyalar asrida dunyoviy bilimdan cheklab ham qo‘yilmaymiz. Dunyoviy bilim bugungi jamiyat tarraqqiyotining muhim bo‘g‘inidir. Darhaqiqat, bizlar kelajak avlodni yuksak ta’lim berish bilan birgalikda, yuksak axloq, odobni ham berishimizni unutmasligimiz zarur. Har taraflama yetuk insongina komillikka erisha oladi.

Haqiqatdan ham tinchlik madaniyatini qaror toptirish hozirgi vaqtda muhim masalardan biridir. Tinchlik madaniyatini qaror toptirishda esa tarbiya muhim o‘rin tutadi. Albatda tarbiya jarayonida esa milliylikni singdirish globallashuv davrida alohida ahamiyatga ega.

Zero Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o’tgan, yuksak ma’naviyat xazinasi bo’lgan jahon va milliy adaboyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz”. [5]

Tarbiya, amaliy ish va tajriba bilan o’rganishdir, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo’lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo’lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig’i bo’ladilar. Maqsadni amalga oshirishda jahd va g’ayrat mo’ljallangan ishni bajarishda zo’r ta’sirga egadir. Nazariy bilimlarning yo ustozlar, yoki hikmatlar o’rgatadilar. [6]

Tarbiya jaronida asosiy o’rinni jamiyat asosini tashkil qiluvchi oila egallaydi. Oila qurish, unda farzandlar tarbiyalash shunchaki amal, zaruriyat emas, balki insonni “xorlik va pastlik jarligi”dan asosiy bo’g’idir.

“Odamlar avval oila shaklida jam bo’ladilar va bir nechta oiladan qavm paydo bo’ladi. Ma’lumki, bir qavmning har bir oilasi saodatli va baxtli bo’lmasalar, o’sha qavmni baxtiyor va baxtli deyish xatodir. Hamda oila a’zosidan birortasi baxtli bo’lmasa, o’sha oilani baxtli deyish noto’g’ri bo’ladi. Madomiki, qavm oilalardan va oila alohida odamlardan tarkib topgan ekan, “ozdan ko’pga” deganidek aytish mumkinki, har qavmning saodati shu qavm oilalarining baxtiyorligidan va har oilaning saodati shu oila a’zolarining baxtiyorligi va baxtililigi bilan bog’liq”. [7]

Real taraqqiyotda millat o’zida mavjud bo’lgan aql-zakovat, bilim va tafakkur bilan umuminsoniy taraqqiyotga ta’sir o’tkazadi, o’zini tashqi zararli ta’sirlardan himoya qila oladi. Ayni paytda, ularni umumiy taraqqiyot darajalarida rivojlantirsa, moddiy kuch darajasiga ko’tara olsa va o’zining “men”ligini mustahkamlay olsagina, o’zining intellektual salohiyatiga ega bo’lgan millat darjasiga ko’tara oladi. [8]

Tinchlik madaniyatini qaror toptirishda vatanparvarlik tuyg’usini ham shakllantirishga e’tibor qaratish zarur.

Vatanparvarlik kishilarning ijtimoiy va ma’naviy axloqiy xislatlarining, fazilatlarining yuksak darajada namoyon bo’lishi hisoblanadi. Zero, ular negizida otabobolardan meros qolgan zaminni sevish, urf-odatlarini, qadriyatlarini saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilib, Vatanni dushmanlaridan himoya qilish, har qanday qaramlikdan ozod etish, hatto zarur bo’lsa, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamaski kabi ezgu g’oyalar yotadi. [9]

Vatanparvarlik ma’lum va mashhur tamoyil bo’lib, u insonning o’z Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo’lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushunchadir. Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash esa hech qachon o’z ahamiyatini yo’qotmaydigan masala hisoblanadi. [10]

Xulosa qilib aytadigan bolsak, bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, tinchlik madaniyatini shakllantirishni to'g'ri yo'lga boshlash lozim.

Bunda:

- turli xildagi ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish;
- ma'naviy merosimiz kelajak-alodlarga munosib tarzda yetkazish;
- mobil telefonlar va internet tarmog'ining inson sog'ligi, ma'naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta'sirlari haqida tushuntirish;
- oilaning ta'lim tizimiga tizimli integratsiyalashuviga erishish. Binobarin, yosh avlodni mafkuraviy tarbiyalashning asosiy manbai bo'lgan barcha ta'lim muassasalari bilan birga ota-onalar ham bu vazifaga bevosita mas'uldirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Giddens A. The Con cequences of Modernity. Cambridge: Polity Press, 1990.P.64.
2. Ратланд П. Глобализация и посткоммунизм//Мировая экономика и международные отношения, 2002 № 4 –с.15-16
3. Robertson R.Globalization:Time-spa and homogeneity-heterogeneity// Global Modernities.- London: Sage, 1995.P. 40
4. Улрих Бек. Что такое глобализация? - Москва: Прогресс - Традиция, 2001.с.43
5. Mirziyoyev Sh.Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.1-jild.-T.: O'zbekiston , 2017
6. Farobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri,- Toshkent. A. Qodiriy nomidagi, Xalq merosi nashriyoti, 1993. 184-185b
7. Fitrat A. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari.–Toshkent: Ma'naviyat, 2016.-15 b
8. Otamuratov S. Globallashuv va milliy ma'naviy xavfsizlik .- Toshkent: O'zbekiston, NMKU, 2013.-401-402b
9. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi.T, 2006. 8.G'oziyev E.G'. —Pedagogik psixologiya. T., 2004.
10. Haydarov F.I., Xalilova N. —Umumiy psixologiya. T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi. J 2009.